

# Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash siyosati

Marillion sizning shaxsiy ma'lumotlaringiz bilan bog'liq ma'lumotlar xavfsizligi va bizning qonuniy majburiyatlarimizga jiddiy munosabat bildiradi. Ushbu hujjat Marillionning ushbu sayt orqali to'plangan shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga oid siyosatini belgilaydi.

## Biz qanday shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlaymiz?

Veb-saytga tashrifingiz natijasida biz qayta ishlaydigan shaxsiy ma'lumotlar bizga taqdim etgan ma'lumotlaringizga bog'liq.

Agar siz bizning saytimizga tashrif buyursangiz, lekin biz bilan keyinchalik o'zaro aloqada bo'lmasangiz, biz faqat bizning saytimiz ishlashi uchun zarur bo'lgan Cookie fayllar tarkibidagi ma'lumotlarni qayta ishlaymiz (qo'shimcha ma'lumot uchun "Cookies" bo'limiga qarang). Agar siz biz bilan muloqot qilishni tanlasangiz, masalan, so'rov formasini to'ldirish orqali biz siz taqdim etgan ma'lumotlarni shaklda ko'rsatilgan maqsadlar uchun qayta ishlaymiz. Ba'zi maydonlar (masalan, siz bilan bog'lanish uchun ma'lumotlaringiz) to'ldirilishi shart, chunki ularsiz biz so'rovingizga javob berish uchun siz bilan bog'lana olmaymiz.

Shuningdek, siz bizga shaxsiy ma'lumotlarning maxsus toifalarini o'z ichiga olmaydigan qo'shimcha shaxsiy ma'lumotlarni taqdim etishingiz mumkin.

## Shaxsiy ma'lumotlardan foydalanish

Saytimiz orqali to'plangan shaxsiy ma'lumotlaringizni quyida ko'rsatilgan maqsadlarda qayta ishlashimiz mumkin:

- Shartnomani tuzish va bajarish: agar siz Marillion mijosi bo'lishga qiziqish bildirsangiz, biz ushbu shaxsiy ma'lumotlardan siz bilan xizmatlar ko'rsatish bo'yicha shartnoma tuzish choralarini ko'rish uchun foydalanamiz. Biz siz bilan tuzilgan shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarimizni bajarish uchun saytimiz orqali taqdim etgan ma'lumotlardan foydalanishda davom etishimiz mumkin.
- Bizning qonuniy manfaatlarimiz: biz shaxsiy ma'lumotlarni biznes yuritish maqsadlarida, jumladan, siz bilan muloqot qilish, qonun bilan yuklangan majburiyatlarni bajarish, biznes va xizmatlarimizni rivojlantirish uchun qayta ishlaymiz.
- Ishga yollash va xodimlarni boshqarish: agar siz bizning saytimizdan ish qidirish uchun foydalansangiz, biz yangi xodimlarni yollash maqsadida ariza beruvchilardan shaxsiy ma'lumotlarni yig'amiz.
- Xavfsizlik, sifat va xavfni boshqarish: shaxsiy ma'lumotlar xavfsizlikni ta'minlash maqsadlarida hamda ichki sifat va xavf tahlili doirasida qayta ishlanishi mumkin.
- Direkt-marketing: biz shaxsiy ma'lumotlarni xizmatlarimizni targ'ib qilish va rivojlantirish uchun direkt-marketing maqsadlarida, hamda bizning nazarimizda, sizni qiziqtiradigan ma'lumotlarni taqdim etish uchun qayta ishlashimiz mumkin. Barcha holatlarda biz sizga direkt-marketing sohasidagi faoliyatimizdan voz kechish imkoniyatini taqdim etamiz. Olingan elektron pochta xabarida joylashgan "Obunani bekor qilish" opsiyasidan foydalanib yoki biz bilan bog'lanish orqali obunani bekor qilishingiz mumkin.
- Qonun yoki biz a'zo bo'lgan o'zini o'zi tartibga soluvchi tashkilotlar talablariga rioya qilish: biz yuridik, me'yoriy va kasbiy majburiyatlarga rioya qilishimiz shart. Xizmatlarimiz ushbu talablarga muvofiq taqdim etilayotganini ko'rsatish uchun bizdan ma'lum hisobotlarni yuritishimiz lozim va bu hisobotlar shaxsiy ma'lumotlarni o'z ichiga olishi mumkin.

Ushbu sayt orqali taqdim etilgan barcha shaxsiy ma'lumotlardan biz taqdim etilgan xizmatlarni baholash va yaxshilash, shuningdek, faoliyatimizni rivojlantirish uchun shaxssizlantirilgan shaklda foydalanilishimiz mumkin.

## Shaxsiy ma'lumotlarni kimga oshkor qilamiz?

Biz vaqti-vaqti bilan shaxsiy ma'lumotlaringizni boshqa Marillion firmalariga, shuningdek uchinchi shaxslarga yuqorida sanab o'tilgan har qanday maqsadlarda, shu jumladan davlat organlari, kasbiy tashkilotlar va veb-xosting provayderlari, IT-xizmatlar, to'lovlarni amalga oshirish va mijozlar bilan ishlashni tashkil qilish xizmatlari bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar kabi bizning nomimizdan xizmat ko'rsatadigan uchinchi shaxslarga uzatishimiz yoki oshkor qilishimiz mumkin.

Shaxsiy ma'lumotlaringizni bizning nomimizdan xizmatlarni amalga oshiradigan uchinchi shaxslarga oshkor qilganimizda, biz sizning ma'lumotlaringizdan faqat ko'rsatmalarimizga muvofiq foydalanilishini ta'minlaymiz.

Shuningdek, biz sizning shaxsiy ma'lumotlaringizni qonun, nazorat qiluvchi organlar talabiga ko'ra yoki har qanday sud jarayonlari munosabati bilan yoki qonuniy huquqlarimizni o'rnatish, amalga oshirish yoki himoya qilish maqsadida uchinchi shaxslarga oshkor qilishimiz mumkin.

Biz sizning shaxsiy ma'lumotlaringizni sotmaymiz yoki hech qanday maqsadda foydalanish huquqini taqdim etmaymiz.

## Shaxsiy ma'lumotlar subyektining huquqlari

Siz ma'lumotlaringizga oid bir qator huquqlardan foydalanishingiz mumkin, jumladan:

- Siz haqingizda bizda saqlanadigan shaxsiy ma'lumotlarga kirish
- Siz haqingizda bizda mavjud bo'lgan noaniq shaxsiy ma'lumotlarni tuzatishimizga so'rov yuborish
- Shaxsiy ma'lumotlaringizni o'chirishga so'rov yuborish
- Shaxsiy ma'lumotlaringizni qayta ishlashimizga roziligingizning bekor qilish (shaxsiy ma'lumotlaringizni rozilik asosida qayta ishlaganimizda)
- Shaxsiy ma'lumotlaringizni qayta ishlashimizga cheklovlar o'rnatish
- Shaxsiy ma'lumotlaringizni qayta ishlashga e'tiroz bildirish

Biz sizning shaxsiy ma'lumotlaringizdan foydalanish bo'yicha barcha huquqlarni amaldagi maxfiylik qonunlari talablariga muvofiq ko'rib chiqamiz. Agar siz shaxsiy ma'lumotlar subyektini huquqlaridan foydalanmoqchi bo'lsangiz yoki ushbu bayonot bo'yicha savollaringiz bo'lsa, iltimos, so'rov shaklimiz orqali biz bilan bog'laning.

## Qayta ishlash davomiyligi

Biz sizning shaxsiy ma'lumotlaringizni quyidagi vaqt davomida tizimlarimizda saqlaymiz: (i) to'planishidan maqsadlar biz uchun zarur bo'lgan vaqtgacha; (ii) qonun tomonidan talab qilinadigan har qanday saqlash muddati; yoki (iii) bizning xizmatlarimiz bo'yicha sud jarayoni yoki tergovlar yuzaga kelishi mumkin bo'lgan da'vo muddati tugaguniga qadar.

Saqlash muddati tugagandan so'ng, shaxsiy ma'lumotlar o'chiriladi yoki shaxssizlantiriladi.

## Ma'lumotlar xavfsizligi

Shaxsiy ma'lumotlaringizni yo'qotish, noto'g'ri foydalanish, o'zgartirish va qasddan bo'lmagan yo'q qilishdan himoya qilish uchun tegishli texnik va tashkiliy nazorat mavjudligini ta'minlaymiz. Bunday vositalarga antivirus dasturlari, Firewall, xavfsiz serverlar, parolni himoya qilish, jismoniy kirishni boshqarish, ikki faktorli identifikatsiya, nosozliklarni va ma'lumotlarga ruxsatsiz kirishni aniqlash kiradi.

Sizning shaxsiy ma'lumotlaringizga kirish huquqiga ega bo'lgan xodimlarimiz bunday ma'lumotlarning maxfiyligini saqlash haqida o'qitilgan. Ularga shaxsiy ma'lumotlaringizga faqat o'z vazifalarini to'g'ri bajarish uchun zarur bo'lgan darajada foydalanishga ruxsat beriladi.

Sizning ma'lumotlaringizni ko'rishi mumkin bo'lgan shaxslar, shuningdek, maxfiylik bo'yicha qat'iy kasbiy majburiyat bilan bog'langan.

Hech bo'lmaganda biznikiga o'xshash standartlarga muvofiq ma'lumotlarni himoya qilish qoidalari barcha pudratchilar va yetkazib beruvchilarga nisbatan qo'llaniladi.

Xavfsizlik tizimlarimiz eng so'nggi tahdidlarga qarshi samarali bo'lishini ta'minlash uchun muntazam ravishda nazorat qilinadi va sinovdan o'tkaziladi.

Biz tomondan Internet va ushbu sayt orqali uzatiladigan ma'lumotlar shifrlash texnologiyalari bilan himoyalangan. Internet orqali amalga oshirilgan hech qanday amaliyot himoya qilinganligiga kafolat berilmaydi.

## Bolalar va bizning sayt

Marillion kompaniyasi, ayniqsa onlayn muhitda bolalar shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish muhimligini tushunadi. Bizning saytlarimiz bolalar uchun mo'ljallanmagan yoki ularga qaratilmagan. Biz saytimiz orqali 18 yoshga to'lmagan hech kimdan ataylab ma'lumot to'plamaymiz yoki saqlamaymiz. Iltimos, biz bilan bog'lanishdan oldin ulardan ushbu ma'lumotni ko'rib chiqishlarini so'rang.

## Cookies

Saytimizda bajarilgan amallar natijasida cookie-fayllar kompyuteringizda saqlanib qolinadi. Cookies — siz tashrif buyurgan saytlar tomonidan kompyuteringizda saqlanadigan kichik matnli fayllardir. Batafsil ma'lumot olish uchun bizning cookie-fayllar siyosatimiz bilan tanishib chiqishingizni so'raymiz.

## Ushbu maxfiylik bayonotiga kiritilgan o'zgartirishlar

Ushbu maxfiylik bayonoti oxirgi marta 2023 yilda yangilangan. Biz uni vaqti-vaqti bilan o'zgartirishimiz mumkin. Har qanday o'zgarishlar ushbu sahifada e'lon qilinadi va biz shaxsiy ma'lumotlar bilan ishlashimizga oldingidek rozi ekanligingizga ishonch hosil qilish uchun ularni bu yerda muntazam tekshirib turishingizni tavsiya qilamiz.